

Date: 28th February-2026

**YOSH AVLOD MA'NAVY-AXLOQIY TARBIYASIGA MA'NAVY
TAHDIDLARNING TA'SIRI**

Zakirova Dilduza Sayidolimovna

FarDU pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi globallashuv sharoitida yosh avlod ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ma'naviy tahdidlarning ta'siri, ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashishga oid materiallardan foydalanish masalasiga- bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: yosh avlod, ma'naviy-axloqiy, tarbiya, tahdidlar, ta'sir, oila,ota-ona, jamiyat, muammolar.

Аннотация. Данная статья посвящена влиянию духовных угроз на духовно-нравственное воспитание молодого поколения в условиях современной глобализации, использованию материалов по борьбе с духовными угрозами.

Ключевые слова: молодое поколение, духовно-нравственное, воспитание, угрозы, влияние, семья, родители, общество, проблемы.

Abstract. This article is devoted to the issue of the influence of spiritual threats on the spiritual and moral education of the younger generation in the context of modern globalization, the use of materials on combating spiritual threats.

Keywords: young generation, spiritual and moral, upbringing, threats, influence, family, parents, society, problems.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" dolzarb vazifa sifatida belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-sonli Farmonida milliy va ma'naviy qadriyatlarimizdan kelib chiqqan holda, oila institutini rivojlantirish, bu sohada yillar davomida e'tibordan chetda qolib kelgan bo'shliq hamda muammolar yechimi yuzasidan tegishli davlat organlari va jamoat tashkilotlari oldiga dolzarb vazifalarni qo'yayotgani bejiz emas. Jumladan, jamiyatning betakror ijtimoiy tuzilmasi hisoblanadigan mahalla institutini aholining chinakam maslakdoshi va ko'makdoshiga aylantirish, uning roli va ahamiyatini oshirish; jamiyat va oilada sog'lom va barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta'minlashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tubdan isloh qilish kabi ustivor yo'nalishlarni o'z ichiga olgan [2]. Shunday ekan, oilada bolalardagi zararli odatlar, illatlar, tarbiyasidagi noqisliklarmazmuni nimalarda ko'rinishini tahlil qilib ko'raylik. Eng avvalo, uning xulq-atvorining axloqiy



Date: 28th February-2026



mezonlardan chekinish holatlarida ko‘rinadi, ya’ni, hurmatsizlik, qo‘pollik, dangasalik; ruhiy holatidagi noqisliklarda – odamovilik, yengiltaklik, jizzakilik, irodasizlik va zararli odatlarga ruju qo‘yishida ko‘rinadi va bu holatlar bolalarda ma’naviy-axloqiy tubanlik illatlarining shakllanishiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida, shaxs taraqqiyotida yemirilish, darz ketish jarayonini hosil qiladi, unda ma’naviy-axloqiy mezonlardan og‘ish kuzatiladi va yosh organizmda har qanday mazmundagi, shu jumladan, ma’naviy tahdidlarga qarshi kurash immunitetining yemirilishiga olib keladi. “Tarbiyasi og‘ir” deganda, pedagogik ta’sirga qarshilik ko‘rsatish tushuniladi. Bunday xulq-atvor jamiyat tomonidan yoki oila tomonidan bola shaxsiyati xususiyatlarini inobatga olmaslik oqibatida kelib chiqadi.

Ma’naviy tahdidlar mazmuni o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, tahdidlarning oldini olish oilada shaxs ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish va sog‘lom turmush tarzi omillariga e’tiborni kuchaytirish orqali amalga oshiriladi.

Yuqorida ta’kidlanganlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, ma’naviy tahdidlarning mazmuni oiladagi ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlarini ifodalaydigan subyektiv omillar majmui;

Ikkinchidan, ma’naviy tahdidlar bugungi kunda, pedagogik nuqtayi nazardan qaraganda, ijtimoiy, axloqiy va madaniy jihatdan tubanlik illatlarini targ‘ib qilish va nosog‘lom turmushga yetaklovchi illatlar ko‘rinishida namoyon bo‘lmoqda;

Uchinchidan, ma’naviy tahdidlar shaxsning axloqiy ongini buzish, nosog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish vositasida oila va uning zamirida jamiyat hayotini izdan chiqarishga yo‘naltirilgan nosog‘lom g‘oyalar majmuidan tashkil topgan xatardir.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda ma’naviy tahdidlar quyidagi illatlarni targ‘ib qilayotgani bilan namoyon bo‘lmoqda: xudpisandlik, xudbinlik, nopoklik, nafs qutqusiga uchish, huzur-halovatga berilish, yengil-yelpi umr kechirishga da’vat, giyohvandlik, mutaasiblik, tajovuzkorlik, mol-u dunyoga o‘chlik, axloqiy buzuqlik, zo‘ravonlik, loqaydlik, irodasizlik, beparvolik axloqsizlikni madaniyat deb bilish. Bu ma’naviy-axloqiy tubanlik illatlari oilalarda nosog‘lom muhitni vujudga keltirib, ular turli xabarlar, flmlar, madaniyat va san’at asarlari, musiqa, maqolalar, hatto oziq-ovqatlar vositasida bilintirmay oilalarga kirib bormoqda.

Shaxs axloqida burch va mas’uliyat tuyg‘usining bo‘lmasligi ham ijtimoiy-axloqiy illat hisoblanadi va bu illat ham oilani parokandalikka olib keluvchi illatlardan hisoblanadi. Olmon faylasuf Fridrix Gegel (1770-1831) odamning burch va mas’uliyatini to‘rtga bo‘ladi, bular: o‘zi oldidagi; oilasi oldidagi; o‘zga odamlar oldidagi va davlat oldidagi burch va mas’uliyatlardir. [2]

Insonning *o‘zi oldidagi* burch va mas’uliyati bilimli, ezgu axloqli bo‘lish, *oilasi oldidagi* burchi va mas’uliyati oila boqish va farzandlarini bilimli va axloqli etib tarbiyalash, *o‘zgalar oldidagi* burchi va mas’uliyati odamlarga nisbatan adolatli, axloqli munosabatda bo‘lish, ularning haq-huquqlarini hurmat qilish, *davlat oldidagi* burchi va mas’uliyati esa davlat xizmatida bo‘lish hamda uni himoya etishdan iborat. Shu ma’noda burch va mas’uliyat hissi shaxs axloqida xudpisanlikka qarshi fazilatlilik, oilaparvarlik,

Date: 28th February-2026

insonparvarlik va jamoaparvarlik sifatlarini hosil qiladi va ma'naviy tahdidlarning oldini oladi.

Oilada yoshlarni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan oilani mustahkamlash, uning nufuzini oshirish, yuksak ma'naviyatli, sog'lom avlodni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanib bormoqda. Darhaqiqat, yuqorida zikr etilganidek, farzand tarbiyasi, sog'lom nasl masalasi nafaqat oila, balki, davlat, jamiyat kelajagini belgilab beruvchi asosiy kuchdir. Yuksak ma'naviyatli insonda esa oilaparvar, vatanparvar va yetuk mutaxassisga xos xususiyatlar mujassamlashadi. XXI asrning global muammolaridan biri oilalarda sog'lom turmush tarzi va ma'naviy-axloqiy immunitetni shakllantirishdir.

Ma'naviy tahdidlar shaxs va jamiyatning axloqiy ongi uchun eng xavfli xurujlar hisoblanadi. Ma'naviy tahdidlar insonning erkin hayoti va ruhiy dunyosiga daxl qilishi bilan birga uning oilasida salbiy holatlarni keltirib chiqarishi, sog'lom turmush tarzini buzilishi bilan xavfli hisoblanadi. Bu masala pedagogik jihatdan jiddiy muammodir. Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini yuksaltirishda, hech shubhasiz, oila va ta'lim muassasasining o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari birinchi galda, oila bag'rida shakllanadi. Shuningdek, inson xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma'naviy mezon va qarashlar, shu munosabatlar to'g'risidagi dastlabki tasavvurlar oila sharoitida, ota-onaning ibrat-namunasidan shakllanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, oila tarbiyasi shaxs ma'naviyatining shaklanishidagi asosiy vosita ekan, bu o'rinda bola tarbiyasida sog'lom nasl masalasi ham muhim rol o'ynashini inkor etib bo'lmaydi. Shu ma'noda yoshlarni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, ular ongida "Sog'lom turmush tarzi – bu sog'lom oila, sog'lom oila – bu sog'lom farzand, baxtli kelajakdir" tasavvurini shakllantirish islohotlarning asosiy vazifasi sanaladi. Shu o'rinda, nosog'lom turmushga yetaklovchi yoki asos bo'luvchi omillardan biri bo'lgan ma'naviy tahdidlar tushunchasining pedagogik mazmunini aniqlashtirib olishga ehtiyoj tug'iladi.

Xulosa qilib aytsak, ma'naviy tahdidlarning shaxs axloqiga nisbatan salbiy ta'siri kuchli bo'lib, ular oilaga ma'naviy-axloqiy tubanlik illatlarini tiqishtiradi, oila a'zolarining axloqini buzadi va ularni nosog'lom turmush tarzi ostonasiga yetaklash orqali oilada ijtimoiy xavf-xatarni kuchaytiradi. Buning pervintiv tarzda oldin olish uchun esa oilada tarbiya jarayonlariga alohida e'tibor qaratish, uning milliylik xususiyatlarini oshirish, bolalarda eng muhim insoniy sifat va fazilatlarini shakllantirish va sog'lom turmush tarzi omillarini tarkib toptirish orqali kurashish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi
<https://uza.uz/uz/posts/zbekistonrespublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-ituv-30-09-2020>



Date: 28th February-2026

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y. 6-son, 70-modda
3. Pedagogika: ensiklopediya. III jild. Jamoa // – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. – 424 b.
4. Гегель. Вера и знание. Работы ранних лет / Пер. с нем., вступ. статья, примеч. А.А.Иваненко. – СПб.: Умозрение, 2021. – 384 с
5. www.ziynet.uz

